

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

ALMATAYEV NOZIMBEK TOJIBOY O‘G‘LI

**AVTOTRAKTOR POLIMER DETALLARINI MAHALLIY
MATERIALLARDAN FOYDALANIB ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIK
JARAYONINING PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.08.06-“G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

ANDIJON – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации
доктора философии (PhD) по техническим наукам**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy
(PhD) on Technical Sciences**

Almatayev Nozimbek Tojiboy o‘g‘li

Avtotraktor polimer detallarini mahalliy materiallardan foydalanib ishlab
chiqarish texnologik jarayonining parametrlarini asoslash 3

Алматаев Нозимбек Тожибой угли

Обоснование параметров технологического процесса производства
автотракторных полимерных деталей с использованием местных
материалов 19

Almataev Nozimbek Tojiboy o‘g‘li

Justification of the Parameters of the Technological Process for the
Production of Automotive Tractor Polymer Parts Using Local Materials ... 35

E‘lon qilingan ishlar ro‘yhati

Список опубликованных работ
List of published works..... 41

**ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.09.2020.T.124.01
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

ALMATAYEV NOZIMBEK TOJIBOY O‘G‘LI

**AVTOTRAKTOR POLIMER DETALLARINI MAHALLIY
MATERIALLARDAN FOYDALANIB ISHLAB CHIQRISH TEXNOLOGIK
JARAYONI PARAMETRLARINI ASOSLASH**

05.08.06-“G‘ildirakli va gusenitsali mashinalar va ularni ishlatish”

**TEXNIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

ANDIJON – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/T4958 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon mashinasozlik institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.andmiedu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xalimjonov Tohir Salimovich
texnika fanlari doktori, professor

Nasirov Ilxam Zakirovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Farg'ona politexnika instituti

Dissertatsiya himoyasi Andijon mashinasozlik instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.09.2020.T.124.01 raqamli ilmiy kengashning 2025 yil «10» yanvar soat 14-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 170119, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 56-uy. Tel: (99874) 223-43-67; faks: (99874) 223-43-67; e-mail: info@andmiedu.uz; e-xat: andmi@exat.uz

Dissertatsiya bilan Andijon mashinasozlik institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (21-raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 170119, Andijon shahri, Boburshoh ko'chasi, 56-uy. Tel: (99891) 612-30-06; faks: (99874) 223-43-67; e-mail: andmi-arm@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil 28-dekabr kuni tarqatildi.
(2024 yil 28-dekabrda № 21-raqamli reestr bayonnomasi).



U.M.Turdialiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengashning raisi, t.f.d., katta ilmiy xodim

Sh.X.Yo'ldashev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash ilmiy kotibi, texnika fanlari
bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

K.Qosimov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi, t.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbliligi va zarurati. Jahonda mashinasozlik va avtomobilsozlik mahsulotlarining sifati va chidamliligini oshirish uchun ularni ishlab chiqarish jarayonida energiya-resurs tejankor texnologiya va texnika vositalarini qo'llash yetakchi o'rinni egallamoqda. Dunyo miqyosida yiliga 91,7 mln. dona avtomobil ishlab chiqarilishini va ular vaznining, xususan, metal sarfining yuqoriligini hisobga olsak, bu o'z navbatida avtomobil va ularning detallarini ishlab chiqarishda ushbu ko'rsatkichlarni kamaytirishga olib keladigan samarador usul va texnologiyalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi. Shu jihatdan, avtomobil detallari uchun polimer materiallarni maqsadli qo'llash va ulardan foydalanib avtomobil detallarini ishlab chiqarish alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda avtomobil detallarini polimer materiallardan ishlab chiqarish va ularning tarkibini yaxshilash orqali avtomobillarning xizmat muddatini oshirishning yangi ilmiy-texnikaviy yechimlarni ishlab chiqarishga joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada, jumladan, polimer detallarni ishlab chiqarishda mahalliy materiallardan foydalanish, ulardan detallar ishlab chiqarish texnologik jarayoni, parametrlari va ish rejimlarini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Respublikamizda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar detallarining sifati oshirish va butlovchi qismlarini ishlab chiqarishda mahalliy materiallardan foydalanish, ular asosida polimer kompozit materiallardan detallar ishlab chiqarish darajasini oshirish, hamda energiya-resurs tejankor texnologiyalarni qo'llash va ishlab chiqarishga joriy etish bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilib, muayyan natijalarga erishilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan "avtomobil sanoatida kooperatsiyani yanada rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 1,4 barobarga, eksport hajmini 2 barobarga ko'paytirish va mahalliy lashtirish darajasini oshirish" bo'yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, jumladan, ishlab chiqarilayotgan yengil va yuk avtomobillarining polimer detallarini tayyorlashda mahalliy materiallardan foydalanish darajasini oshirishga alihida e'tibor berilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28 yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-son farmoni¹, 2019-yil 24-avgustdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida"gi PQ 4426-son qarori²,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF 60-son farmoni.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 24-avgustdagi "Davlat va xo'jalik boshqaruvi hamda mahalliy ijroiya hokimiyati organlarining ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish va sanoat tarmoqlarida kooperatsiya aloqalarini jadallashtirishning yangi tizimini joriy etish bo'yicha mas'uliyatini yanada oshirish to'g'risida"gi PQ 4426-son qarori

2018-yil 17-yanvardagi “Mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlarining talab yuqori bo‘lgan mahsulot va xom-ashyo turlari bilan barqaror ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 3479-son qarori va 2016-yil 26-dekabrda “2017-2019-yillarda tayyor mahsulot turlari, butlovchi buyumlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliy lashtirishning istiqbolli loyihalarini amalga oshirishni davom ettirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ 2698-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me’yoriy-xuquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublika Fan va texnologiyalari rivojlantirishning II. “Energetika, energiya va resurslarni tejash” ustuvor yo‘nalishi doirasida mos ravishda olib borilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Hozirgi kunda avtomobillarning vaznini kamaytirish, detallarni tayyorlash va metallarni tejash maqsadida nometallar, xususan avtomobil detallari uchun polimer materiallarni maqsadli qo‘llash bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari jadal olib borilmoqda.

Kompozitsion polimer materiallar yaratish va ulardan avtomobil detallarini olish texnologiyasini ishlab chiqish muammolari bo‘yicha **xorijda** A. Kumar., Уат Дж.Л., М.Л. Кербер, Г.С.Головкин, А.А.Берлин, Ю.С.Липатов, В.П. Струк, В.А. Белий, **respublikamizda** S.S.Negmatov, S.SH.Rashidova, K.A.Sharipov, A.A.Risqulov, U.A.Ziyamuxamedova, N.S.Abed, L.Yu.Bakirov, I.T.Usmanov, A.A.Raxmanqulov, M.N.To‘xtasheva va shu kabi qator olimlar ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borgan. Ayniqsa, ular tomonidan mashinasozlikning turli xil sohalari uchun yangi texnologiyalarni qo‘llash orqali ishonchligi yuqori bo‘lgan yangi tarkibli, yuqori fizik-mexanik, texnologik va ekspluatatsion xususiyatlarga ega kompozitsion materiallar yaratib, ular asosida avtomobil detallarini tayyorlash va qoplamalar olishga katta e’tibor berilmoqda. Mazkur tadqiqotlar natijasida avtomobil polimer detallarini kompozitsion materiallardan ishlab chiqarish bo‘yicha muayyan darajada ijobiy natijalarga erishilgan.

Ammo, hozirgi kunda respublikamizda polimer detallarini ishlab chiqarishda mahalliy materiallardan fodalalanish imkoniyatlarini o‘rganish va ular yordamida detallar ishlab chiqarish texnologik jarayon parametrlarini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar yetarlicha o‘tkazilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon mashinasozlik institutining quyidagi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq bajarilgan:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan **UZB-Ind-2021-85** sonli Andijon mashinasozlik instituti va Hindistonning Shrinagar milliy texnologiyalar instituti bilan hamkorlikda bajarilgan “Nano o‘lchamdagi to‘ldiruvchilar bilan boyitilgan polimer kompozit materiallar va qoplamalarini mexanik hamda tribologik xususiyatlarini takomillashtirish” mavzusida xalqaro amaliy loyiha(2021-2023 yy).

2. **AIF 1/3-sonli** “O‘zbekistonda oliy ta’lim va ishlab chiqarishning sinergetik integratsiyasini yaratish” mavzusidagi loyiha(2018-2022 yy);

Tadqiqotning maqsadi avtotraktor polimer detallarini mahalliy materiallardan foydalanib ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlarini asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

avtomobillarda polimer materiallarining qo‘llanilishi va ulardan avtomobil detallarini tayyorlash texnologiyalarini tahlil qilish;

o‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan yengil avtomobillar detallarining mahalliy lashtirish darajasini aniqlash va polimer detallarga qo‘yiladigan talablarni o‘rganish (“Uz-Koram Co” MCHJ QK misolida);

o‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan mahalliy polipropilen va kaolinning turi va fizik-mexanik xususiyatlarini o‘rganish;

mahalliy polipropilen va kaolin asosida yangi kompozitsion polimer materiallar(KPM) yaratish hamda ularning fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash;

yangi kompozitsion polimer materiallardan detallar ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlarini aniqlash;

ishlab chiqarish korxonalarida sinov tajribalarini o‘tkazish va polimer detallar ishlab chiqarish parametrlarining optimal qiymatlarini asoslash;

dissertatsiya ishining texnik-iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning obyekti sifatida “Tracker va Onix” avtomobillarining polimer havo quvuri olingan.

Tadqiqotning predmeti polimer materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari va polimer detallarni ishlab chiqarish texnologik jarayoni.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida matematikaning statistik tahlil va modellashtirish usullari, materiallarning fizik – mexanik xususiyatlarini aniqlashning standart usullari hamda detallarni ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlarini aniqlash usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mahalliy polipropilenning zichligi, oquvchanligi, cho‘zilishga va zarbga mustahkamligiga mahalliy kaolin miqdorining ta’sirini ifodalovchi bog‘lanishlar aniqlangan;

avtomobil polimer detallarini ishlab chiqarish uchun polipropilen va kaolin asosida kompozit materiallar tarkibi ularning fizik-mexanik xususiyatlaridan kelib chiqib asoslangan;

avtomobil polimer detallarini yangi kompozitsion materiallardan ishlab chiqarishda texnologik jarayonining ishchi silindr harorati, soplo va quyish kanallarining haroratlari, quyish bosimi, quyish va sovitish vaqtlari kabi parametrlari asoslangan;

mahalliy polipropilen va kaolin asosida ishlab chiqarilgan havo quvurlarining texnologik va ekologik ko‘rsatkichlari ya’ni materialning tumanlanish va hid chiqarish xususiyati hamda detalni haroratga bardoshlilik chegaralari aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

avtotraktor polimer detallari uchun xom-ashyo sifatida mahalliy polipropileni va Angren kaolinidan keng miqyosda foydalanish hamda ular yordamida O‘zbekistonda ishlab chiqarilayotgan avtotraktorlarning polimer detallar materiallarini mahalliyashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan;

tadqiqotlar natijasida mahalliy materiallardan kompozitsion polimer materiallar olish usuli va polimer detallar ishlab chiqarishning takomillashtirilgan texnologiyasi “UzAvto Cepla” MCHJ, “Uz-Koram Ko” MCHJ QK va boshqa ishlab chiqarish korxonalariga tavsiya etilgan;

avtotraktor polimer detallarining ishlash muddatini bashoratlash uchun maxsus muhandislik dasturi yaratilgan;

tadqiqot natijasida olingan ma’lumotlar Andijon mashinasozlik institutining o‘quv jarayonida laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarni bajarish uchun o‘quv jarayoniga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqotlarni zamonaviy usul va o‘lchash vositalaridan foydalangan holda o‘tkazilganligi, nazariy va eksperimental tadqiqotlarning o‘zaro adekvatligi, bajarilgan tadqiqotlar asosida yaratilgan polimer kompozitsion materiallarning va ular asosida tayyorlangan polimer detallarning ijobiy natijalari va amaliyotga joriy etishga tavsiya etilganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati avtotraktor polimer detallari uchun foydalanilgan mahalliy polipropilenning fizik-mexanik xususiyatlariga mahalliy kaolin miqdorining ta’sirini ifodalovchi bog‘lanishlarni aniqlanganligi va avtomobil detallarini yangi mahalliy kompozitsion polimer materiallardan ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlarining optimal qiymatlari asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati avtotraktor polimer detallari uchun xom-ashyo sifatida mahalliy polipropilen va mahalliy kaolinni qo‘llash yo‘llari aniqlanganligi, ular yordamida avtotraktor polimer detallarini mahalliyashtirish imkoniyatlari ochib berilganligi, maxsus dastur yaratilganligi va tadqiqot natijalari bakalavr talabalari uchun o‘quv-uslubiy materiallar sifatida foydalanilayotganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Avtotraktor polimer detallarini mahalliy materiallardan foydalanib ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlarini asoslash bo‘yicha olingan natijalar asosida:

“Tracker va Onix” avtomobillarining “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlari uchun mahalliy polipropilen va mahalliy kaolin asosida polimer kompozitsion materiallar yaratilgan hamda ishlab chiqarishga joriy etish uchun qabul qilingan (“UzAvto” AJning 2024-yil 16-sentyabrdagi 17/07-25-1431 sonli ma’lumotnomasi olingan). Natijada mahalliy kaolinning 20 % miqdorida kompozitsiyaning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari optimal qiymatlarga ega bo‘lishi aniqlangan (“UzAvto Cepla” MCHJ va Andijon Mashinasozlik instituti o‘rtasidagi 2024-yil 11-iyunda tuzilgan dalolatnomasi);

mahalliy kompozitsion polimer materialdan foydalanib tayyorlangan “Tracker va Onix” avtomobillarining “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlari ishlab

chiqarishga joriy etish uchun qabul qilingan("UzAvto" AJning 2024-yil 16-sentyabrdagi 17/07-25-1431 sonli ma'lumotnomasi olingan). Natijada havo quvurlarini ishlab chiqarish jarayonining parametrlarini o'rtacha 6-9 % ga pasayishi hisobiga elektr energiyasi iste'moli 6-7 % ga kamaygan. Bir dona havo quvurini ishlab chiqarish uchun sarflanadigan vaqtni 2 soniyaga pasayishi hisobiga qo'shimcha detallar ishlab chiqarishga erishilgan ("Uz-Koram Ko" MCHJ va Andijon Mashinasozlik instituti o'rtasidagi 2024-yil 19-iyulda tuzilgan dalolatnomasi).

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur dissertatsiya ishining natijalari 10 ta ilmiy va ilmiy-texnik anjuman va seminarlarda, jumladan 6 ta xalqaro va 4 ta respublika miqyosidagi anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 18 ta ilmiy maqolalar chop etildi. O'zbekiston Respublikasi OAKning falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda chop etildi. 1 ta dastur uchun guvohnoma olindi.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiyaning tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosalar, 91 ta foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovadan iborat. Ish 107 sahifali kompyuter matnida taqdim etildi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va ahamiyati asoslangan hamda uning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan. Tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan hamda respublikada ilm-fan va texnologiyalarning rivojlantirish bo'yicha ustuvor yo'nalishlarga mosligi aniqlangan. Ishning ilmiy yangiligi va tadqiqotlarning amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, ishning aprobatsiyasi, nashr etilgan ilmiy ishlar, dissertatsiyaning tarkibi va tadqiqot natijalarining joriy qilinishi to'g'risidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning hozirgi holati va tadqiqotning maqsad va vazifalari**" deb nomlangan birinchi bobida muammoning hozirgi holati o'rganilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari shakllantirilgan.

Hozirgi kunda dunyo olimlari tamonidan olib borilayotgan tadqiqotlarining tahlili shuni ko'tarmoqdaki, mashinasozlikda materialshunoslikning dolzarb ilmiy yo'nalishlari, xususan, polimer materiallarni maqsadli qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, termoplast polimerlarning optimal tarkiblarini shakllantirish orqali ularning fizik, mexanik, texnologik xususiyatlari va ekspluatatsion ishonchligini ta'minlash hamda ularni avtomobilsozlikda keng miqyosda qo'llash hozirgi kunda yechimini kutayotgan muammolardan biri hisoblanadi.

Avtomobil uchun polimer materiallardan foydalanishning ko'plab afzalliklari mavjud, masalan qulaylik, arzon narx, vaznini kamaytirish, korroziyaga va zarbga chidamlilik. Dizayn sohasida murakab shakllarni yaratish imkoniyati mavjud. Ushbu xususiyatlar polimer materiallarni avtomobilning tashqi ko'rinish dizaynida alohida

o‘rin egallaydi va bu kelajakda avtomobillarda ishlatiladigan detallarni ishlab chiqarishda polimer materiallarni qo‘llash imkoniyatlarini oshiradi.

Avtomobillarda ishlatiladigan materiallarning taxminan 65% polimerlar deb olsak, ularning 32 % polipropilen, 17 % poliuretan va 16 % PVX tashkil qiladi. Avtomobil detallari uchun ishlatiladigan materiallarning muhim ko‘rsatkichlar bu ularning fizik-mexanik xususiyatlari hisoblanadi.

Quyidagi 1-jadvalda avtomobillarda keng ko‘lamda ishlatiladigan polimer materiallarning fizik-mexanik xususiyatlarini keltirilgan.

1-jadval

Avtomobillarda keng ko‘lamda ishlatiladigan polimer materiallarning fizik-mexanik xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar	O‘lchov birligi	PP	PVX	PUR
Zichligi,	kg/m ³	900	900-1000	3500-4000
Elastiklik moduli,	MPa	-	-	350-400
Mustahkamligi, a) cho‘zilishda b) egilishda	MPa	25-40 -	28-42 -	- -
Erish harorati	T ⁰ C	160-170	150-200	200
Qotish harorati	T ⁰ C	70-80	70-80	80
Ishlash harorati	T ⁰ C	120	130-140	120-150

Polimer materiallar quyidagi asosiy afzallik va kamchiliklarga ega, afzalliklari:

- polimer materiallar tarkibiga ma‘lum miqdorda chiqindilar va to‘ldirgichlar (metall va nometallar chiqindilari, organik va noorganik moddalar) qo‘shish hisobiga ularning hajmini oshirish va detallar vazinini kamaytirish mumkin;

- turli muhitlarda korroziyaga chidamliligi yuqori;
- texnologiyabop;
- ishlaganda shovqinning kamligi va h.o.

kamchiliklari:

- harorat va bosim tahsirida konstruktiv o‘lchamlarining beqarorligi;
- mexanik mustahkamlikning pastligi;
- vaqt o‘tishi bilan o‘z xususiyatlarini o‘zgartirishi;
- yeyilishga bardoshligini kamligi. Ushbu kamchiliklar turli xil to‘ldirgichlar qo‘shish va turli usullar bilan qayta ishlab berish hisobiga bartaraf etiladi.

Hozirgi kunda polimer detallarini tayyorlashda aylanma harakat orqali shakl berish, bosim ostida quyish, shtamplash va ekstruzion shakl berish usul va texnologiyalari qo‘llaniladi. Ularning orasida qulay va samaralisi bosim ostida quyish usuli hisoblanadi. Bu usul quyish jihozi TPA (termoplast avtomat) vositasida amalga oshiriladi.

Avtomobil detallarida polimer materiallarning qo‘llanilishi, ularning afzalliklari, kamchiliklari va detallar tayyorlash texnologiyalarini tahlil qilish asosida

mazkur ilmiy-tadqiqot uchun maqbul bo'lgan material xom-ashyolar va qayta ishlash usuli tanlab olindi.

Dissertatsiyaning “Nazariy tadqiqotlar” deb nomlangan ikkinchi bobida tajribada ishlatiladigan materiallarning asosiy xususiyatlari, sinov usullari va jihozlari hamda tadqiqotning nazariy asoslari keltirilgan.

Tadqiqot ishlari uchun “UzKorGas chemical” MChJ QKda ishlab chiqarilayotgan J-370 markali mahalliy polipropilen, “Angren kaolin” zavodining AKT-10 markali kaolini va “UzAutoMotors” AJda ishlab chiqarilayotgan “Tracker va Onix” avtomobillarining havo quvurlari tanlab olindi.

Tadqiqotdning nazariy asoslari. Tajribadagi o'lchashlar natijalari tasodifiy kattaliklar hisoblanib, ularni qayta ishlash uchun matematik statistikaning eng ko'p tarqalgan usullari –*korrelyatsion va regression tahlil* usullaridan foydalaniladi.

Ikki belgi orasida korrelyatsion bog'lanish mavjudligi yoki yo'qligini aniqlash uchun *korrelyatsiya koeffitsiyenti* topiladi. Agar $f(y) = ax + b$ funksiya o'rinli bo'lsa, korrelyatsiya koeffitsiyenti bir omilli chiziqli bog'lanish xarakteristikasini ifodalaydi. Funksiya parametrlari odatda eng kichik kvadratlar usuli (EKKU) bilan aniqlanadi. Buning mohiyati quyidagicha, haqiqiy miqdorlardan regressiya tenglamasi orqali aniqlangan miqdorlar farqining kvadratlari yig'indisi eng kam bo'lishi zarur, ya'ni $\sum (y_i - \bar{y})^2 \rightarrow \min$.

Qiymat eng kam bo'lishi uchun darajali xosilalar nolga teng bo'lishi kerak. Uning uchun dastlab a va b lardan xususiy xosila olinib keyin nolga tenglab EKKUning normal tenglamalar tizimi(3) hosil qilinadi.

$$F(a,b) = \sum (y_i - \bar{y})^2 = \sum (ax_i + b - y_i)^2 \quad (1)$$

$$\begin{cases} \frac{DF(a,b)}{Da} = 2\sum (ax_i + b - y_i)x_i = 0 \\ \frac{DF(a,b)}{Db} = 2\sum (ax_i + b - y_i) = 0 \end{cases} \quad (2)$$

Bu tenglamalarni yechib noma'lum a va b aniqlanadi.

$$\begin{cases} a\sum x_i^2 + b\sum x_i - \sum x_i y_i = 0 \\ a\sum x_i + 6b - \sum y_i = 0 \end{cases} \quad (3)$$

$$a = \frac{n\sum x_i y_i - \sum x_i \sum y_i}{n\sum x_i^2 - (\sum x_i)^2} \quad (4)$$

$$b = \frac{\sum x_i \sum x_i y_i - \sum x_i^2 \sum y_i}{(\sum x_i)^2 - n\sum x_i^2} \quad (5)$$

bu yerda,

a – regressiya koeffitsiyenti

Korrelyatsiya koeffitsiyenti r quyidagi formula orqali aniqlanadi.

$$r = \frac{\sum x_i y_i - \bar{x} \bar{y} * n}{n * \sigma_x * \sigma_y} \quad (6)$$

Korrelyatsiya va regressiya koeffitsiyentlarini topish uchun quyidagi 2-jadval to'ldirib olinadi.

2-jadval

Ta'sir etuvchi va o'zgaruvchi omillarning qiymatlari

n	x_i	y_i	x_i^2	y_i^2	$x_i y_i$
1	5	0,944	25	0,8911	4,72
2	10	0,989	100	0,9781	9,89
3	15	1,023	225	1,0465	15,345
4	20	1,054	400	1,1109	21,08
5	25	1,075	625	1,1556	26,875
6	30	1,097	900	1,2034	32,91
Σ	105	6,182	2275	6,3856	110,82

1. Jadvaldan foydalanib a, b va r topiladi.

$$a = \frac{n \sum x_i y_i - \sum x_i * \sum y_i}{n \sum x_i^2 - (\sum x_i)^2} = 0,006$$


$$b = \frac{\sum x_i * \sum x_i y_i - \sum x_i^2 * \sum y_i}{(\sum x_i)^2 - n \sum x_i^2} = 0,9249$$

$$r = \frac{\sum x_i y_i - \bar{x} \bar{y} * n}{n * \sigma_x * \sigma_y} = 0,99$$

2. Regressiya tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$\underline{\underline{y = 0,006x + 0,9249}}$$

$y = 0,006x + 0,9249$ tenglamadan foydalanib qiymatlarni aniqlab olamiz va uning grafigi (1-rasm)ni chizamiz.



1-rasm. Nazariy va tajribaviy tadqiqotlarning solishtirma grafigi

“UzAutoMotors”AJ avtomobillari detallarining mahalliy lashtirish darajasini tahlili shuni ko‘rsatdiki, Tracker avtomobilining mahalliy lashtirish darajasi 32 %, Onix avtomobiliniki esa 44 % tashkil qilishi aniqlandi. Tadqiqot ishi uchun 10 dan ortiq mahalliy lashtirilmagan detallar orasidan “Tracker va Onix” avtomobillari uchun polimer materialdan ishlab chiqariluvchi “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvuri tanlab olindi.

Dissertatsiyaning “Avtomobil polimer detallarini ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlarini asoslash” deb nomlangan uchinchi bobida eksperimental tadqiqotlar va ularning natijalari keltirilgan.

Avtomobil polimer detallarini ishlab chiqarishda foydalaniladigan mahalliy polipropilen va kaolin asosida yangi kompozit materiallar yaratildi va ularning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlandi. Mahalliy polipropilen va kaolin asosidagi kompozitsion polipropilen materiallarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari bo‘yicha olingan sinov natijalari 3-jadvalda ko‘rsatilgan.


3-jadval

Mahalliy kompozitsion polipropilen materiallarning fizik-mexanik ko‘rsatkichlari

№	Ko‘rsatkichlar	Sinov usullari	O‘lchov birligi	JM-370	JM-370	JM-370	JM-370	JM-370	JM-370
				(95%) Kaolin 5%	(90%) Kaolin 10%	(85%) Kaolin 15%	(80%) Kaolin 20%	(75%) Kaolin 25%	(70%) Kaolin 30%
1	Zichligi	ISO 1183	gr/sm ³	0,944	0,989	1,023	1,054	1,075	1,097
2	Oquvchanligi	ISO 1183	g/10min	30,96	30,1	29,44	28,76	28,36	27,3


3	Cho‘zilishdagi mustahkamlik, 50 mm/min	ISO 527	MPa	1866	2020	2256	2301	2416	2536
4	Cho‘zilishdagi uzilish kuchi, 50 mm/min	ISO 527	MPa	26,48	26,0	25,1	24,74	24,08	23,11
5	Zarbga mustahkamlik, (+23°C)	ISO 179	kJ /m ²	3,56	3,41	3,28	3,22	3,12	2,92
6	Zarbga mustahkamlik, (-30°C)	ISO 179	kJ /m ²	1,68	1,65	1,51	1,39	1,19	1,12
7	Yuklama ostida egilish harorati (1.8 MPa)	ISO 75-1	°C	51,02	52,68	52,9	53,6	54,11	55,2
8	48 soatdan keyin qisqarishi(cho‘kish)	ISO 294-1	%	0,8	0,8	0,88	0,88	0,88	0,88

Tadqiqotlarda polipropilen kompozitsiyasining fizik-mexanik xususiyatlarini to‘ldirgich ulushiga nisbatan o‘zgarishi aniqlandi(2 va 3-rasmlar).



2-rasm. Kompozision materiallar zichligini to‘ldirgichning turi va miqdoriga bog‘liqligi

2-rasmdan ko‘rinib turibdiki, 95% JM-370+5% talk kompozitsiyasining zichligi 0,995 gr/sm³, 95% JM-370+5% kaolin kompozitsiyasining zichligi 0,934 gr/sm³ tashkil etdi. Ushbu kompozitsiyalarda 15% va 25 % talk va kaolinda zichlik mos ravishda 1,044 va 1,023 hamda 1,087 va 1,077 gr/sm³ tashkil etdi.



3-rasm. Kompozision materiallar oquvchanlik ko‘rsatkichi(KOK)ni to‘ldirgichning miqdoriga bogliqligi

Talk bilan to‘ldirilgan kompozitsiyaning oquvchanligi 5 % da 31,80 g/10min bo‘lsa, 10 % dan posayishi boshlanadi va 20 %da 27,9, 30 %da 26,4 g/10min tashkil etdi. Kaolin bilan to‘ldirilgan kompozitsiyalarning oquvchanligi esa 5%da 30,96, 20 %da 28,76 va 30 %da 27,3 g/10min tashkil etib, talkka nisbatan 2-4 % ortgan. Kompozitsiyaning oquvchanlik ko‘rsatkichi uchun kaolinning optimal miqdori 20 %ni tashkil etadi(3-rasm).

O‘tkazilgan tajribalar natijasida mahalliy polimer kompozitsiyasidan (PP+kaolin, UZB 16258) havo quvurlarining ishlab chiqarish parametrlari aniqlandi. 4-jadvalda havo quvurlarini aniqlangan ishlab chiqarish parametrlari berilgan.

4-jadval

UZB 16258 mahalliy polimer kompozitsiyasidan “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurini olish texnologik jarayon parametrlari

Ko‘rsatkichlar		O‘lchov birligi	Qiymat
Polimer kompozitsiyasini quritish harorati		°C	80-90
Quritish vaqti		min	120-240
Erish harorati		°C	210-240

Ishchi silindr harorati	Boshlang'ich	$^{\circ}\text{C}$	190-200
	Oraliq	$^{\circ}\text{C}$	200-210
	Oldingi	$^{\circ}\text{C}$	170-190
Soplo harorati		$^{\circ}\text{C}$	170
Quyish kanallari harorati		$^{\circ}\text{C}$	210
Bosim		MPa	7-8
Quyish vaqti		sek	14
Sovitish vaqti		sek	22
Shnekning aylanish tezligi		ayl/min	120-130

4-jadvaldan ko'rinib turibdiki, UZB 16258 mahalliy polimer kompozitsiyasini quritish harorati va vaqti, erish harorati, bosim va shnekning aylanish tezligining qiymatlari o'zgarishsiz qoldi. Ishchi silindrning boshlang'ich harorati $190-200^{\circ}\text{C}$, oraliq harorati $200-210^{\circ}\text{C}$, oldingi harorati $170-190^{\circ}\text{C}$, soplo harorati 170°C , quyish harorati 210°C , quyish vaqti 14 soniya va sovutish vaqti 22 soniyani tashkil etdi.

“Tracker va Onix” avtomobillarining “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlarini olish texnologik jarayon parametrlarining optimal qiymatlarini asoslash maqsadida qilingan solishtirma tahlil natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

5-jadval

“DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlarini q olish texnologik jarayon parametrlarining solishtirma jadvali

Quyish jarayoni parametrlari		O'lchov birligi	Qiymat	
			GMW 16528	UZB 16528
Polimer kompozitsiyasini quritish harorati		$^{\circ}\text{C}$	80-90	80-90
Quritish vaqti		min	120-240	120-240
Erish harorati		$^{\circ}\text{C}$	210-240	210-240
Ishchi silindr harorati	Boshlang'ich	$^{\circ}\text{C}$	195-215	190-200
	Oraliq	$^{\circ}\text{C}$	215-220	200-210
	Oldingi	$^{\circ}\text{C}$	190-200	170-190
Soplo harorati		$^{\circ}\text{C}$	180	170
Quyish kanallari harorati		$^{\circ}\text{C}$	220	210
Bosim		MPa	6-7	6-7
Quyish vaqti		sek	16	14
Sovutish vaqti		sek	24	22
Shnekning aylanish		ayl/min	120-130	120-130

tezligi				
---------	--	--	--	--

Shunday qilib, 4 va 5-jadvallarda “Tracker va Onix” avtomobillari “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlarining olish texnologik jarayon parametrlari aniqlandi. Ularning orasidan havo quvurlarining olish texnologik jarayon parametrlarining quyidagi optimal qiymatlari asoslandi: quritish harorati 80-90 °C va vaqti 120-240 min, erish haroratlari 201-240 °C, bosim 6-7 MPa va shnekning aylanish tezligi 120-130 ayl, ishchi silindrning boshlang‘ich harorati 190-200 °C, oraliq harorati 200-210 °C, oldingi harorat 170-190 °C, soplo harorati 170 °C gacha, quyish harorati 210 °C, quyish vaqti 14 soniya sovutish vaqti 22 soniya(5-jadval 2-ustun).

Dissertatsiyaning “**Tadqiqotlar natijalarining kompleks tahlili**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida eksperimental tadqiqotlar natijalarining tahlili va iqtisodiy samaradorlik hisoblari keltirilgan.

Yangi mahalliy (UZB) polimer kompozitsion materiallardan olingan “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurining texnologik (xaroratga bardoshlilik) va ekologik (tumanlashish va hid chiqarish) xususiyatlari bo‘yicha sinovlar “Uz-Koram Ko” MChJ QK laboratoriyasida belgilangan talablari asosida o‘tkazildi(6-jadval).

6-jadval

“DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurining xaroratga bardoshlilik, tumanlash va hid chiqarish xususiyatlarining laboratoriya sinovlari natijalari

Sinov ko‘rsatkichlari	Materialning tumanlash xususiyati	Hid chiqarish xususiyati	Xaroratga bardoshlilik
Sinov usuli	GMW 3235	GMW 3205	GMW 14325
Talab ko‘rsatkichi	≤ 2	≥ 6	Ijobiy
Olingan natija	0,41	8	Ijobiy

6-jadvaldan ko‘rinib turibdiki, havo quvuri materiallarining tumanlash xususiyati belgilab qo‘yilgan qiymat chegarasidan(≤ 2) ortib ketmagan, ya’ni 0,41 ga teng. Hid chiqarish xususiyati ham qoyilgan talabga javob beradi, ya’ni u 8 ga teng. Haroratga bardoshlilik sinovi bo‘yicha tajriba natijalari ham ijobiy(6-jadval).

Shunday qilib amalga oshirilgan nazariy va amaliy tadqiqotlar natijalari ishlab chiqaruvchi korxonalar talablariga to‘la javob beradi. Olingan natijalar “UzAuto Cepla” MChJ QK tamonidan yangi kompozitsion materiallar yaratishda va “Uz-Koram Co” MChJ qo‘shma korxonasi tamonidan avtomobillarining polimer detallarini ishlab chiqarishda foydalanish uchun tavsiya etildi.

Amaldagi polimer kompozitsion materiallarining tarkibiy qismlarini mahalliy material bilan almashtirish hisobiga 1 tonna polimer kompozitsiyasi uchun 770 000 so‘m iqtisodiy samaraga erishiladi va 304 AQSH dollarga teng xorijiy valyuta tejab qolinadi. Agar yillik 50 tonna polimer kompozitsiyasini ishlab chiqarilishini inobatga

olinsa, kutilayotgan yillik iqtisodiy samaradorlik 38 500 000 so‘mni tashkil qiladi. Bu yiliga 3056 AQSH dollariga teng xorijiy valyutani trjash imkoniyatini yaratadi. Detalni ishlab chiqarishdan yillga 535 660 334 so‘m kutilayotgan iqtisodiy samaradorlikga erishiladi.

Ushbu dissertasiya ishining natijalarini ishlab chiqarishga joriy etishdan kutilayotgan yillik umumiy iqtisodiy samaradorlik 574 160 334 (besh yuz yetimish to‘rt million bir yuz oltimish ming uch yuz o‘ttiz to‘rt) so‘mni tashkil qiladi.

U M U M I Y X U L O S A L A R

1. Avtomobillarda polimer materiallarning qo‘llanilishi, ularni qayta ishlash usullari va jixozlari bo‘yicha qilingan tahlillar asosida tadqiqot uchun mahalliy materiallar va ulardan detal olish usullari aniqlandi.

2. Avtomobil polimer detallarini tayyorlashda mahalliy polipropilen va kaolin asosida materiallar tarkibi yaratildi va ularning fizik-mexanik xususiyatlari aniqlandi.

3. Mahalliy polipropilenning fizik-mexanik xususiyatlariga mahalliy kaolinning ta‘siri aniqlandi va ulardan avtomobil detallarini ishlab chiqarish imkoniyatlari ochib berildi.

4. “Tracker va Onix” avtomobillarining “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlari uchun yangi yaratilgan mahalliy polipropilen kompozitsion materialdan detallar ishlab chiqarish texnologik jarayonining parametrlari aniqlandi va ularning optimal qiymatlari asoslandi.

5. “Tracker va Onix” avtomobillarining “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlarini ishlab chiqarish texnologik jarayoni parametrlarining asoslangan optimal qiymatlari hisobiga qo‘shimcha detallar ishlab chiqarish imkoniyati yaratildi.

6. Avtomobil polimer detallarini tayyorlashda ishlatiladigan materiallarni mahalliyashtirilishi hisobiga ularning tannarxini va ishlab chiqarishdagi uzilishlar kamyadi hamda import materiallarga bo‘lgan extiyoj pasayadi va ularga sariflanadigan valyuta tejaladi.

7. Avtomobil detallari uchun mahalliy kompozitsion polimer materiallarni ishlatishdan va ulardan olingan “Onix va Tracker” avtomobillarining “DUCT ASM-AIR DISTR FRT” havo quvurlarini ishlab chiqarishga joriy etishdan kutilayotgan yillik umumiy iqtisodiy samaradorlik 574 160 334 (besh yuz yetimish to‘rt million bir yuz oltimish ming uch yuz o‘ttiz to‘rt) so‘mni tashkil qiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.09.2020.Т.124.01 ПРИ АНДИЖАНСКОМ
МАШИНОСТРОИТЕЛЬНОМ ИНСТИТУТЕ**

АНДИЖАНСКИЙ МАШИНОСТРОИТЕЛЬНЫЙ ИНСТИТУТ

АЛМАТАЕВ НОЗИМБЕК ТОЖИБОЙ УГЛИ

**ОБОСНОВАНИЕ ПАРАМЕТРОВ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА
ПРОИЗВОДСТВА АВТОТРАКТОРНЫХ ПОЛИМЕРНЫХ ДЕТАЛЕЙ С
ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ МЕСТНЫХ МАТЕРИАЛОВ**

05.08.06- “Колесные и гусеничные машины и их эксплуатация”

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ
НАУКАМ**

АНДИЖАН – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан за номером B2024.3.PhD/T4958

Диссертация выполнена в Андижанском машиностроительном институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский и английский (резюме)) размещен на веб-странице (www.andmiedu.uz) и информационно-образовательном портале «Ziyonet» по адресу (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Шарипов Конгратбай Аvezимбетович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Халимжанов Тохир Салимович
доктор технических наук, профессор

Насиров Илхам Закирович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

Ферганский политехнический институт

Защита диссертации состоится 10.01.2025 года в 14-00 часов на заседании Научного совета PhD.03/30.09.2020.T.124.1 при Андижанском машиностроительном институте по адресу: 170119, г. Андижан, просп. Бобура, 56. Тел: (99874) 223-43-67; факс: (99874) 223-43-67; e-mail: info@andmiedu.uz; e-xat: andmi@exat.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского машиностроительного института (зарегистрировано за № 21 Адрес 170119, г. Андижан, просп. Бобура, 56. Тел: (99891) 612-30-06; факс: (99874) 223-43-67; e-mail: andmi-arm@umail.uz)

Автореферат диссертации разослан 28.12.2024 года.
(реестр протокола рассылки № 21 от 28.12.2024 года).



У.М. Турдиалиев

Председатель научного совета по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, старший научный сотрудник.

Ш.Х. Йулдашев

Ученый секретарь научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии по техническим наукам (PhD), доцент.

К. Қосимов

Председатель научного семинара при научном совете по присуждению ученых степеней, доктор технических наук, профессор.

Введение (доктор философии (PhD) аннотация диссертации)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Применение энерго-ресурсосберегающих технологий и технических средств с целью повышения качества и долговечности продукции машиностроения, в том числе автомобилестроения в процессе их производства, занимает одно из ведущих мест в мире.

Если учесть, что во всем мире ежегодно производится 91,7 млн. штук автомобилей, для их деталей требуется высокого расхода металла, то это, в свою очередь, создает необходимость внедрения в практику эффективных методов и технологий, приводящих к снижению этих показателей в производстве автомобилей и их деталей.

Поэтому, целенаправленное применение полимерных материалов для автомобильных деталей и их использование при производстве узлов машин имеет важное значение.

В мире ведутся научно-исследовательские работы, направленные на разработку новых научно-технических решений повышения срока службы деталей автомобилей из полимерных материалов за счет изменения их состава. В этой связи особое внимание уделяется использованию отечественных материалов при изготовлении полимерных деталей и обоснованию параметров технологического процесса и режимов работы их изготовления.

В республике осуществляются широкомасштабные меры по повышению качества выпускаемых автомобильных деталей и применению отечественных материалов при производстве комплектующих изделий, повышение уровня производства деталей из полимерных композитных материалов, а также по внедрению энерго-ресурсосберегающих технологий. В стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы определены задачи по «дальнейшему развитию кооперации в автомобильной промышленности путем увеличения объемов производства в 1,4 раза, экспорта в 2 раза и повышения уровня локализации». При реализации этих задач, в том числе изготовления полимерных деталей выпускаемых легковых и грузовых автомобилей, важное значение приобретает повышение уровня использования отечественных материалов.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, установленных указом УП № 60 от 28 января 2022 года "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы"¹, ПП № 4426 от 24 августа 2019 года "О дальнейшем повышении ответственности органов государственного и хозяйственного управления и органов исполнительной власти на местах за внедрение новой системы локализации производства и

¹ Указ Президента Республики Узбекистан УП № 60 от 28 января 2022 года "О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы".

ускорение кооперационных связей в отраслях промышленности”² и ПП № 3479 от 17 января 2018 года «О мерах по стабильному обеспечению отраслей экономики страны востребованными видами продукции и сырья» и ПК № 2698 от 26 декабря 2016 года “О мерах по дальнейшей реализации перспективных проектов локализации производства готовых видов продукции, комплекующих изделий и материалов на 2017 — 2019 годы”, а также другими нормативно-правовыми актами, касающимися данной деятельности.

Соответствие исследований приоритетным направлениям развития науки и техники Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии в рамках с приоритетным направлением развития науки и технологий республики П. "Энергетика, энергосбережение и ресурсосбережение.

Степень изученности проблемы. В настоящее время интенсивно ведется научно-исследовательские работы в целях снижения веса автомобиля, производства деталей и экономии металла, в частности, по целевому использованию полимерных материалов для деталей автомобиля.

За рубежом проблемами разработки композиционных полимерных материалов и производства из них деталей занимались А.Кумар, Уат Дж.Л., М.Л.Кербер, Г.С.Головкин, А.А.Берлин, Ю.С.Липатов, В.П. Струк, В.А.Белый и др. В республике в этом направлении исследования проводили С.С.Негматов, С.Ш.Рашидова, К.А.Шарипов, Н.С.Абед, А.А.Рискулов, Л.Ю.Бакиров, У.А.Зиямухамедова, И.Т.Усманов, А.А.Рахимкулов, М.Н.Тухташева и др.

Особенно, в них большое внимание уделяется созданию новых композитных материалов с повышенной надежностью, улучшенными свойствами, изготовлению деталей автомобилей и получению покрытий с применением новых технологий для различных отраслей машиностроения. По результатам вышеприведенных исследований определенном уровне достигнуты положительные результаты в производстве автомобильных полимерных деталей из композитных материалов.

Однако в настоящее время в нашей республике недостаточно проведены исследования по изучению возможностей использования отечественных материалов при изготовлении полимерных деталей и обоснование параметров технологического процесса изготовления деталей.

Связь диссертационного исследования с планами научно-исследовательских работ высшего образовательного и научно-исследовательского учреждения, в котором выполняется диссертация. Диссертационное исследование выполнено в соответствии со следующим планом научно-исследовательских работ Андижанского машиностроительного института:

² Постановление Президента Республики Узбекистан ПП № 4426 от 24 августа 2019 г. “О дальнейшем повышении ответственности органов государственного и хозяйственного управления и органов исполнительной власти на местах за внедрение новой системы локализации производства и ускорение кооперационных связей в отраслях промышленности”.

1. **UZB-Ind-2021-85** международный проект “Совершенствование механических и трибологических свойств полимерных композитных материалов и покрытий, обогащенных наноразмерными наполнителями”, выполненный в сотрудничестве с Андижанским машиностроительным институтом и Шринагарским национальным технологическим институтом Индии (2021-2023 гг.).

2. **АИФ № 1/3** проект на тему "Создание синергетической интеграции высшего образования и производства в Узбекистане" (2018-2022 гг.);

Цель исследования. Обоснование технологических параметров производство автотракторных полимерных деталей с использованием местных материалов.

Задачи исследования.

Анализ состояния вопроса применения полимерных материалов в автомобилях и технологий изготовления из них деталей;

Определение уровня локализации деталей легковых автомобилей, изготовленных в Узбекистане и изучение требований к полимерным деталям (на примере СП “Uz-Koram Co”;

Изучение вида и физико-механических свойств полипропилена и каолина, производимых в Узбекистане;

Создание новых композиционных полимерных материалов (КПМ) на основе местного полипропилена и каолина, а также определение их физико-механических свойств;

Определение параметров технологического процесса изготовления деталей из новых композиционных полимерных материалов;

Проведение тестовых испытаний на производственных предприятиях и обоснование оптимальных значений параметров процесса производства;

Оценка технико-экономической эффективности диссертационной работы.

Объект исследования. В качестве объекта исследования в диссертационной работе была выбрана воздушная трубка автомобилей “Tracker и Onix”.

Предмет исследования. Предметом исследования являются физико-механические свойства полимерных материалов и технологический процесс производства полимерных деталей.

Методы исследования. В процессе исследования использовались методы статистического анализа и моделирования, стандартные методы определения физико-механических и технологических свойств материалов, методы определения параметров технологического процесса производства полимерных деталей.

Научная новизна исследования.

Определены связи, выражающие влияние количества местного каолина на плотность, текучесть прочность на растяжение и ударопрочность местного полипропилена;

Обоснован состав композиционных материалов на основе полипропилена и каолина для изготовления автомобильных полимерных деталей с учетом их физико-механических свойств;

Обоснованы параметры технологического процесса изготовления полимерных деталей автомобилей из новых композиционных материалов такие как температура рабочего цилиндра, сопла и литьевых каналов, давление литья, время литья и охлаждения;

